

SHARQSHUNOSIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

3

2024

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 3, 2024



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan
qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

D. Sayfullayev	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
D. Muxiddinova	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
A. Mannonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
R. Xodjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Shomusarov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
U. Muxibova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Xamidov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
B. Abdulhalimov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Xodjayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Doniyorov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
D. Xodjimuratova	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh. Yovqochev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
A. Vahobov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Abdullayev	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
I. Mavlanov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
E. Izzetova	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
G. Glizon	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
Ono Masaki	<i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>
Li Dji In	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
V. Mesamed	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
A. Gurer	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
A. Vorobyov	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
G. Avda	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
S. Kurayim	<i>Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
A. Tohir	<i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdamzoda, G. Xushnazarova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi
Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

<i>Ochilov O.</i> Hu Shi til islohotlarining zamonaviy xitoy she'riyati shakllanishidagi ahamiyati	5
<i>Yuldasheva X.</i> Milliy identifikatsiya arab adabiy personaji timsolida	16
<i>Sharaxmetova M.</i> "Boburnoma"ning urducha tarjimasida milliy koloritning berilishi	22
<i>Kabirova N.</i> Rahnavard Zaryob asarlarida hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari.....	32

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //

ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //

LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Sodiqov Q.</i> Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamalari.....	45
<i>Umarova M. Yakubova Sh.</i> Tarjimashunoslikda "Milliy kolorit" tushunchasi masalalari	65
<i>Jumaniyazov M.</i> «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» va «Al-Unmuzaj» asarining qiyosiy tadqiqi.....	74
<i>Abdurahmonova M.</i> Hindistonda fanlarni o'qitishda interfaol usullarni qo'llash tajribasi	93
<i>G'iyosov B.</i> Xitoy ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan ta'lim shiorlarining leksik-semantik tasnifi	101

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //

ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //

SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

<i>Karimov A.</i> Xitoyning amaliy san'ati Dzyandjining rivojlanish bosqichlari.....	115
<i>Faromarzi F, Vohidova M.</i> Mirzo Muhammad Rahimbek va uning "Esdaliklar" asari	125
<i>Xubbaliyeva M.</i> "Du Huanning borgan joylari xotirasi" sayohatnomasida Markaziy Osiyo.....	141

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //

INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

<i>Ulug'ov N., Saidolimov S.</i> Siyosiy nutq va uning jamoatchilikka ta'siri	154
<i>Sadibaqoyev H.</i> AQSHning Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ittifoqchilari va ular bilan munosabatlarning strategik ahamiyati	163
<i>Abdullayev J.</i> Markaziy Osiyo davlatlari diplomatik munosabatlarning zamonaviy tarixi.....	176



Güngör Şahin, İsmail Polat. The Role of Energy Security in the Case of Kazakhstan – People’s Republic of China Relations.....	189
Normayeva M. Siyosiy ishtirok va ayollarning siyosiy faolligiga ta’sir etuvchi omillar (Turkiya Respublikasi misolida)	208
Medihanur Argali. Cultural Diplomacy: Fraternal Ties Between Uzbekistan and Azerbaijan.....	220
Bekdurdıyeva G. Xalqaro munosabatlarda “Yashil nazariya” asoslari va unga doir yondashuvlar	241
Gafarov I. Strategic approaches of Russia and China vis-a-vis Central and South Asia	255
Xodjayev L. Xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassislarini kasbiy tayyorlashda xorijiy tilni o‘rgatishning xususiyatlari.....	268
Abdurasulov J. Xalqaro munosabatlarda geosiyosiy vaziyatlar hamda Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta’minlashning zamonaviy holati	281

FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY

Mavrulova M. Sharq mutafakkir-allomalari shaxs madaniy-ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirish to’g’risida.....	297
--	-----



13. Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Т., 2014. – 250 б.
14. Ҳамидов Х. Ўзбек қисса ва романларининг туркча таржималарида миллийлик, бадийлик ва лисоний адекватлик масалалари: Филол. фан. док. (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2021. – 235 б.
15. Шарипов Р. Бадиий таржима. – Тошкент, 2021. – 123 б.
16. Ходжаева Н. Бадиий таржиманинг лексик-стилистик муаммолари: Филол. фан. номз. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 124 б.
17. Исматуллаева Н. Хитой ва ўзбек тилларида лақуналар (Монография). – Тошкент, 2021. – 144 б.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 том. – М.: Рус тили, 1981. – 464 б.
19. Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык: дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1958. – 184 с.
20. Гафурова Г. К проблеме взаимосвязей узбекской и русской литератур (Вопросы художественного перевода с узбекского на русский язык). Автореф. канд.дисс., Ташкент, 1967. – 18 с.
21. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: “Фан”, 2005. – 89 б.
22. Соипова М. Таржимада миллий ўзига хосликни қайта яратиш // Таржима муаммолари. 2-китоб. – Тошкент, 1991. – 72 б.

JUMANIYAZOV MANSUR

Tayanch doktorant, TDSHU

«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» va «Al-unmuzaj» asarining qiyosiy tadqiqi

Annotatsiya. Arab tili grammatikasida mashhur asarlardan Mahmud az-Zamaxshariyning o'z asari “Mufasssal”ga yozgan “Unmuzaj” sharhini alohida ta'kidlash lozim. Tadqiqotimiz asosi hisoblangan Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb” asari “Unmuzaj”ning sharhi deyilgan ba'zi qarashlarga qo'shilmagan holda, bu mustaqil asar ekanligini dalillash uchun, ensiklopedik asarlarga murojaat qilindi. Asar haqida berilgan ma'lumotlar o'rganildi, G'arb va Sharq olimlarining bu boradagi fikrlari solishtirildi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, G'arb olimlari “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb” asari “Unmuzaj”ning sharhi ekanligini qayd etishgan. Biroq eronlik olim Og'a Buzruk bu asarni mustaqil asar ekanligini ta'kidlab, uni ko'rganini aytadi. Alloma Hoji Xalifa bu asarni bir qavlda «Al-Unmuzaj» sharhi kabi desa, boshqa joyda uning sharhining uslubida yozilgan deb ta'kidlaydi. Hoji Xalifa bu asarni to'liq sharh yoki mutlaq mustaqil asar deb keltirmagan. Biz Eron kutubxonalaridan olingan ba'zi qo'lyozmalarning birinchi sahifasida “Bu asar “Unmuzaj” sharhining uslubida yozilgan” degan ma'lumotlarni topdik hamda ikki asarni bir-biriga solishtirdik. Mazlumlarni ko'rib chiqqanimizda ko'plab o'xshashliklarning guvohi bo'ldik. Ishni davom ettirib, qiyosiy tahlil vazifasiga boshqa nahv kitoblarni ham qo'shдик. Boshqa asarlarda ham bu fikrga yaqin holatlar



uchradi, o'sha davr nahv kitoblari barcha xususiyatlarida o'zaro o'xshashligi kuzatildi. Bundan ko'rinadiki, ikki asardagi o'xshashlik tabiiy bo'lib, asarda berilgan turli xil mavzulardagi qoidalarining ta'rifi, misollar, ketma-ketlik, ifoda usullarida ayrim farqlar ham mavjud ekan. Bu farqlanishlar asarning mutlaqo boshqa yo'nalishdagi kitob ekanligini anglatmasa-da, asar muallifining har bir mavzuda o'z qarashiga ega ekanligini bildiradi. Kitobning "Ergashuvchilar mavzusi" da grammatik istilohlarning mutloq xilof tarzda ifodalanishi asarning shaxsiy uslubga ega mustaqil asar ekanidan dalolatdir. Unda an'anaga ko'ra "Unmuzaj"ning matni keltirilmagani va biror mavzuni yoritishda muallif ustozining fikrlarini zikr qilmaganligini inobatga olib, qo'lyozmalardagi qaydlarni e'tirozsiz qabul qilinsa, bu mustaqil asar ekanligini shak-shubhasiz tan olish lozim bo'ladi.

Kalit so'z va birikmalar: Ot so'z turkimi, fleksiya, bosh kelishikdagi so'zlar, tushim kelishigidagi so'zlar, qaratqich kelishigidagi so'zlar, to'ldiruvchilar, moslashmagan aniqlovchi, fe'l so'z turkumlari.

Abstract. One of the famous works about the grammar of the Arabic language is Makhmud az-Zamakhshari's commentary "Unmuzaj" written on his work "Mufasssal". The work "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" by Ziyaviddin Makki Khorezmi, which is considered the basis of our research, being disagree with some views of the that the work is the commentary of "Unmuzaj", and proves that "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" is an independent work, referring to encyclopedic works and about it. In the course of the research, it was found that Western scholars noted that the work "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" is a commentary of "Unmuzaj". However, the Iranian scientist Agha Buzruk says that he has seen this work, emphasizing that it is an independent work. Allama Haji Khalifa states that this work is written in the style of his commentary, while in one work it is called Unmuzaj's commentary. Haji Khalifa did not refer to this work as a complete commentary or a completely independent work. We found information on the first page of some manuscripts taken from Iranian libraries that "this work is written in the style of the "Unmuzaj" commentary" and we compared these two works. When we looked at the topics, we saw many similarities. Continuing the work, we added other grammar books to the task of comparative analysis. In other works, there were cases close to this idea, and it was observed that the Nahv books of that time were similar in all their features. It can be seen that the similarities between the two works are natural, and there are some differences in the definition, examples, sequence, and methods of expression of the rules on various topics given in the work. Although these differences do not mean that the work is a book of a completely different direction, it means that the author of the work has his own view on each topic. The chapter of the book "Expression of revolutions in the theme of complex sentences in an absolutely contradictory way" is evidence that this is an independent work with a personal style. Taking into account that according to the tradition, the text of "Unmuzaj" was not cited and the author did not mention the opinions of his mentor when explaining a topic, if the notes in the manuscripts are accepted without objection, it should be recognized without a doubt that this is an independent work.

Keywords and expressions: noun word category, Inflection, words in the nominative case, words in the accusative case, words in the genitive case, complements, non-agreeing modifier, verb word categories.

Аннотация. Одной из известных работ по грамматике арабского языка является комментарий Махмуда аз-Замахиари «Унмузадж», написанный на его произведение



«Муфассал». Произведение Зиявиддина Макки Хоразми «Кифаяту-н-нахв фи илми-ле'раб» считается основой нашего исследования, и, с целью доказать, что оно является самостоятельным произведением, а не комментарием к произведению «Унмузай», мы обратились к энциклопедическим произведениям. Были изучены сведения о работе, сопоставлены мнения западных и восточных ученых.

В ходе исследования было установлено, что западные учёные назвали произведение «Кифаяту-н-нахв фи илми-ле-эраб» комментарием к «Унмузадж». Однако иранский ученый Ага Бузрук утверждает, что видел эту работу, подчеркивает, что это самостоятельная работа. Аляма Хаджи Халифа считает, что эта работа написана в стиле комментария «Унмузадж», а в другом месте называет его комментарием. Хаджи Халифа не называл эту работу полным комментарием или полностью независимой работой. На первой странице некоторых рукописей, взятых из иранских библиотек, мы нашли информацию о том, что «это произведение написано в стиле комментария Унмузаджа», и сравнили два произведения. В процессе рассмотрения тем, мы нашли много общего. Очевидно, сходство между двумя работами существуют, но имеются некоторые различия в определении, примерах, последовательности и способах выражения правил по различным темам, приведенных в работе. Хотя эти различия не означают, что произведение представляет собой книгу совершенно иного направления, это означает, что автор произведения имеет свой взгляд на каждую тему. Грамматические выражения в книге «Тема последователей» выражены совершенно по-иному, что свидетельствует о том, что произведение является самостоятельным произведением с индивидуальным стилем. По традиции текст «Унмузаджа» не цитируется, и автор не упоминает мнения своего наставника при разъяснении темы. Если примечания в рукописях принять без возражений то, без сомнения, можно признать, что это самостоятельное произведение.

Ключевые слова: Существительное, флексия, слова в именительном падеже, слова в винительном падеже, слова в родительном падеже, дополнения, несогласованное определение, глагол.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari XII asrda yaratilgan nahvga oid kitoblarning orasida eng mashhur asarlardan hisoblanadi. Chunki bu asar o'sha davrdagi nahv kitoblarining uslubida yozilgan va zamonasining mashhur tilshunos ulamolar asarlarning yo'nalishida ta'lif qilingan edi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarining qismlarga bo'linishi, mavzular ketma-ketligi, ustoz Mahmud Zamaxshariyning uslubida grammatik qoidalar so'z turkumlari – ism, fe'l va harflar bo'yicha ko'rib chiqilgan. Fonetika haqida ustoz kabi alohida qism ajratmagan, balki o'rni kelgan mavzular orasida qisman aytib o'tgan. Asarning ichki tuzilishi boshqa asarlardan ba'zi qarashlarda o'xshashlik, bir xillik, ba'zi qoidalarni dalillashda farqlilik va ba'zisida mutloq o'zgachalikni ko'rish mumkin. Shunga qaramay, ayrim olimlar bu asarni Mahmud Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarining sharhi deb qaraydilar. Muhimi shundaki, bu fikrlarga ergashuvchilar ham talaygina bo'lib, ular ushbu g'oyalarni qo'llab uni yozishgan yoki shunga ishora qilishgan.



Jumladan, nemis sharqshunosi Karl Brokkelman o'zining «Arab adabiyoti tarixi» nomli fundamental asarida shunday deydi:

شروح: مختصر من المفصل الكتاب الثالث هو كتاب صغير في النحو

1. شرح لمحمد بن عبد الغني الأردبيل

2. حقائق الحقائق لسعد الدين البردعي

3. شرح المجهول

4. شرح للشواهد

5. كفاية النحو في علم الإعراب لتلميذه ضياء الدين المكي

Uchinchi kitob «Al-Unmuzaj» arab grammatikasiga oid mo'jaz kitob bo'lib, «Al-Mufasssal»ning kichraytirilgan shaklidir. Uning sharhlari: 1. Muhammad ibn Abdulg'aniy al-Ardabiliyning sharhi. 2. Sa'duddin al-Barda'iyning «Nafosat gulshani» sharhi. 3. Muallifi noma'lum sharh. 4. Dalillarni sharhlash kitobi. 5. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» o'zining shogirdi bo'lgan Ziyovuddiy Makkiyning sharhi. Bundan ko'rinib turibdiki, olim mazkur asarni «Al-Unmuzaj» sharhlarining qatorida qo'yib, beshinchi o'rinda zikr qilgan¹. Olim asarni sharh sifatida qo'shimcha qilgan bo'lsa-da, uni sharh emas, balki mustaqil asar sifatida ko'radigan olimlar ham bor. Eronlik mashhur faqih, tarixchi Shayx Og'a Buzruk At-Tahroniy o'zining 25 jildli «Al-Zari'a» nomli fundamental ensiklopediyasida shunday deydi: شرح المفصل الزمخشري مرتب على ثلاثة أقسام: الأسماء و الأفعال و الحروف رأيت في خزنة شيخنا الحاج محمد حسن كبة.

«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» Zamaxshariyning «Mufasssal» asari sharhi-ning uslubi va tartibida yozilib, 3 qism: ismlar, fe'llar, harflar so'z turkumlariga bo'lingan. Men uni shayximiz Hoji Muhammad Hasan Kubbaning kutibxonasida ko'rdim, – deydi olim. «Mufasssal» asari sharhi deyilganda, Mahmud az-Zamashshariyning «Mufasssal» kitobining ixchamlashtirilgan sharhi «Al-Unmuzaj» kitobi nazarda tutilgan. Olim asarni sharh emas, balki «Unmuzaj»ning usul yo'nalishida mavzular ketma-ketligi bir xil yozilganligini ta'kidlaydi².

Shayx Molik Almahmudiy Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Al-Manoqib» kitobini tahqiq qilar ekan, muallifning asarlari haqida gap ketganda «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarini zikr qiladi. Ikkita olimning Shayx al-Amiyniy va Sayyid Muhammad Rido al-Xurosonning ma'lumotlariga tayanib quydagi iqtibosni keltiradi. كفاية النحو في : على نهج المفصل للزمخشري في الأسماء و الأفعال و الحروف kitob ya'ni «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari Ismlar, Fe'llar va Harflar ko'rinishida Zamaxshariyning «Mufasssal» asarining uslubida³ deb keltiradi kitobda³.

¹ كارل بروكلمان. تاريخ الأدب العربي. دار المعارف بمصر. الجزء الخامس. 1975. ص. 238

² الشيخ محمد محسن بن علي بن محمد رضا الطهراني النجفي. كتاب الذريعة الى تصانيف الشيعة الجزء الثامن عشر. دار الأضواء. بيروت. 1983. صحيفة 97

³ ضياء الدين المكي الخوارزمي. المناقب. تحقيق الشيخ مالك المحمودي. مؤسسة النشر الإسلامي بقم المشرفة. ربيع الثاني 1414هـ. ص. 23.



Hoji Xalifa «Kashfu-z-Zunun» asarida «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari haqida ikkita o'rinda toxtaladi. Birinchi: الكفاية في علم الإعراب جرى فيه مجرى شرح «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari «Unmuzaj»ning sharhi uslubida yozilib, u Mahmud Zamaxshariyning shogirdi Ziyovuddin Makkiyga tegishli», deydi¹. Ikkinchi kitobda «Al-Unmuzaj» asari haqida ma'lumot berilib uning sharhlariga o'tiladi. «Unmuzaj»ga ko'plab sharhlar yozilganligini ta'kidlab, sharh qiluvchilarning ism va yashagan davrlari haqida ma'lumot beradi, biroq sharhlovchilar qatorida Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyni zikr qilmagan. Gapni qaytadan boshlab, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari haqida quyidagilarni yozgan. جعل تلميذ المصنف ضياء الدين المكي كتابا كالشرح و سماه الكفاية «Muallif shogirdi Ziyovuddin Makkiy «Unmuzaj»ga sharh kabi kitob qildi va uni «Kifaya» deb nomladi»².

Birinchi fikr tarafdorlari ushbu asarni «Unmuzaj»ning sharhi deb qaraganda umumiy xususiyatlarni nazarda tutgan. Sababi «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» kitobining qolipida yozilgan. Undagi mavzular ketma-ketligi va qoidalarining yoritilishi Zamaxshariyning «Unmuzaj»iga yaqin turadi. Bu asarning sharhi degani emas. Asarning umumiy o'xshash xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi:

1. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarining mundariyasi «Al-Unmuzaj» mundarijasiga yaqin turadi.
2. Muallif ba'zi qoidalar va misollarni Zamaxshariyning «Mufasssal» asaridan keltirgan.

3. Nahvga oid istilohlarning ko'p joylarida bir xillik ko'zga tashlanadi.

Masalan: «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarining kirish qismi, ya'ni birinchi الفصل في بيان معنى الكلمة والكلام «Kalima va kalomning bayoni fasli»da, kalimaning ta'rifini quyidagicha beradi. هي اللفظة الدالة على معنى مفرد. اعلم أن الكلمة : أعي: وضع أهل اللغة، Bilginki, arab tilida yagona ma'noga dalolat qiluvchi so'z, lafz kalima deyiladi ya'ni til ahlining vaziyatini nazarda tutyapman»³. «Al-Unmuzaj» asarida esa mana bunday ta'riflagan: الكلمة مفرد و هي إما «Kalima bitta so'z, u kishi so'zi kabi ism ham hisoblanadi». «Al-Mufasssal» asarida «Yagona ma'noga dalolat qiluvchi so'z, lafz kalima deyiladi»⁵. Uchta holat qiyoslanadigan bo'lsa «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida kalimaning ta'rifi Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asaridagi ta'rifdan mutlaqo farq qiladi, ammo «Al-Mufasssal»dagi

¹ العلامة حاجي خليفة كشف الظنون عن أسامي الكتب و الفنون. بيروت 1981. ص 1498

² العلامة حاجي خليفة كشف الظنون عن أسامي الكتب و الفنون. بيروت 1981. ص 185

³ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 3a.

⁴ شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 4

⁵ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدادة. المفصل في علم العربية دار عمار - الأردن. 2003. صفحة 32



ta'rifga juda o'xshab ketadi, faqat اهل اللغة وضع أعني: til ahlining vaziyatini nazarda tutyapman, degan izoh yo'q. Olim kalima so'ziga ta'rif berishda Zamaxshariyning «Mufasssal» asaridagi ta'rifini qabul qilgan. Kalom esa «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida: ما تركب من كلمتين مستغنياً بالإفادة عن غيره، ولا يكون ذلك إلا من المركب «Kalom tugallangan ma'noni ifoda qiluvchi ikkita kalimadan tarkib topgan birikma. O'shanda u ikkisining biri boshqasi haqidagi so'z bo'lgan ikki ismdan tarkib topgan bo'ladi»¹. «Unmuzaj»da unga ta'rif quyidagicha berilgan: الكلام مؤلف من اسمين أسند أحدهما إلى الآخر; boshqasiga bog'langan, ya'ni ega kesimlik munosabatida bo'lgan ikki ismdan tarkib topadi»². «Mufasssal»da ham xuddi «Unmuzaj»dagi kabi bir xil berilgan. Demak, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy kalomga ikki usulda o'zgacha ta'rif bergan. «Al-Unmuzaj»da kalom ikkita ismdan iborat bo'ladi, deyilgan bo'lsa, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida ikkita kalima va ikkita ismdan iborat bo'lishi tushuntiriladi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning ta'rif ham qisqa, ham biri ikkinchisini to'ldiradi.

Yuqorida asarning birinchi qismi الأسماء «Ismlar» deb nomlangani zikr qilindi. Mana shu ismlarning birlik shakli hisoblangan ism so'zining ma'nosini tahlilga tortsak. Ism so'zi o'zbek tilida jonli va jonsiz narsalarni bir-biridan ajratib turadigan nom ma'nosini beradi. Arab tilida esa mazkur tadqiqotning manbasi «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asariga murojaat qilamiz. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ismga quyidagicha ta'rif beradi. الاسم : ما دل على معنى في نفسه غير مقترن بزمان مخصوص

«Ism, ma'lum bir zamonga taalluqli bo'lmagan mustaqil ma'noga dalolat qiladigan lafzdir»³. Endi «Al-Unmuzaj» kitobida ismga ta'rif berilmasdan Ism bobining boshidan uning xususiyatlari yoritilgan. Ism u الاسم هو ما صح الحديث عنه haqida gapirish to'g'ri bo'ladi», deb misollar keltirgan muallif. Biroq Zamaxshariy «Al-Unmuzaj» kitobida ismga ta'rif bermasa-da, «Al-Mufasssal»da uni boshqacha ta'riflaydi: الاسم : ما دل على معنى في نفسه دلالة مجردة عن الإقتران «Ism deb bog'lanishdan holi bo'lib, mustaqil ma'noga ega bo'lgan lafzga aytiladi»⁴.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ismga ta'rif berishda tilshunos Qozi nomi bilan mashhur Al-Sarafi (284–368-hijriy) yo'nalishidan borgan. Chunonchi, Sarafi shunday deydi: Ism sodir الاسم: ما دل على معنى في نفسه غير مقترن بزمان محصل bo'luvchi zamonga taalluqli bo'lmagan mustaqil ma'noga dalolat qiladigan lafzdir»⁵. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu ta'rif Ibn Hojibning «Al-Kofiya»

¹Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 3a.

² شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999.صفحة6

³ O'sha asar, 4a.

⁴ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003.صفحة33

⁵ العلامة ابن يعيش. شرح المفصل في صنعة الإعراب. إدارة الطباعة المنيرية. بمصر. ص.25



asaridagi ta'rifga juda yaqin. Ibn Hojib quydagi ta'rifni keltiradi: نفسه غير مقترن ¹ «Ism deb uchta zamondan biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil ma'noga dalolat qiluvchi lafzdir». Misollardan ko'rinib turibdiki, uchta olim ismga turlicha ta'rif keltirgan. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi ta'rif Al-Mufasssal»dagi ta'rifdan farqli ravishda «مجردة عن muayyan» غير مقترن بزمان مخصوص iborasi o'rniga bog'lanishdan xoli» iborasi o'rniga bog'liq bo'lmagan» deya keng qamrovli, eng qisqa va tushunarli tarzda bayon qilinadi.

Yana bir muhim jihat kitobning nomiga bog'liq bo'lgan e'rob bobidagi qarashlar bo'lib, qiyoslash chog'ida ulardagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rish mumkin. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy e'rob tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: E'rob bu – turli omillar ta'sirida ism oxiridagi kelishikning lafzan va taqdiran o'zgarishi»². «Al-Unmuzaj» asarida: E'rob bu turli omillar ta'sirida ism oxiridagi kelishikning lafzan va taqdiran o'zgarishi», deya ta'kidlanadi. «Al-Kofiya» kitobida Ibn Hojib e'rob haqida shunday deydi: E'rob bu – turli omillar ta'sirida ism oxiridagi kelishikning lavzan va taqdiran o'zgarishi». «Mufasssal» asarida Zamaxshariy e'robni quydagicha ifoda qiladi: E'rob bu – turli omillar ta'sirida ism oxiridagi kelishikning lavzan va sintaktik jihatdan o'zgarishi» deb tushuntiradi. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, e'robga uch nafar olimning qarashi bir xil, faqat «Mufasssal»da bitta so'zning istilohi boshqacha, ta'kidlash so'zi o'rniga sintaktik jihatdan istilohi berilgan. Ammo ikki kelishikli va uch kelishikli ismlar «Unmuzaj»da mavzuning boshida keltirilgan «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida mavzuning so'ngida zikr qilingan.

Yirik va sarmahsul mavzulardan hisoblangan المرفوعات «bosh kelishiklardagi ismlar»ni olim ikki qismga bo'lib o'rganadi.

1. أصل «haqiqiy asl bosh kelishiklardagi ismlar»;

2. ملحق به «haqiqiy aslga o'xshash bosh kelishiklardagi ismlar».

Dastlabki أصل, ya'ni «haqiqiy asl bosh kelishiklardagi ismlar» u foil ekanligini ta'kidlaydi. فالأصل هو الفاعل ما عدا من المرفوعات ملحق بينهما «Asl u foil undan boshqa bosh kelishiklardagi ismlar aslga o'xshash bosh kelishikdagi ismlar hisoblanadi»,

¹ العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 19

² Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 9b.

³ شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه وعلق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 25

⁴ العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 20

⁵ العلامة ابن يعيش. شرح المفصل في صنعة الإعراب. إدارة الطباعة المنيرية. بمصر. ص 58



deydi¹. Ularni qismlarga bo'lgach, birinchi qismdagi foildan boshlaydi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy foilga quyidagicha izoh beradi. **الفاعل هو ما جعل الفعل** حديثاً عنه مقدماً عليه نحو خرج زيد لم يقم عمرو طاب الخير bajaruvchidan oldin kelib u haqida gapirishidir. Masalan; Zayd chiqdi, Umar turmadi, yaxshi bo'ldi². Xuddi shu foilga berilgan ta'rifni Abu Bakr bin as-Sirojning (316h) «Al-Usul fi an-Nahv» kitobida kuzatish mumkin: **يجعل الفعل حديثاً** «Foil bu – fe'l undan oldin kelib u haqida gapirishi»³. **الفاعل** Zamaxshariy «Unmuzaj»da foilga ta'rif keltirmay, unga misollar keltirgan. **الفاعل** «Foil ikki xil bo'ladi: 1. Ochiq – Zayd urdi. 2. Yashiringan–Zaydni urdim»⁴. «Mufasssal»da esa foil quyidagicha tushuntiriladi: **الفاعل هو ما كان المسند إليه الفعل و شبهه و مقدماً عليه أبداً** «Foil deb fe'l va shibhi fe'l doim oldin kelib, unga suyanadigan lafzdir». Masalan: **ضرب زيد و زيد** ضرب زيد, Zayd o'g'lini urdi, Zayd, uning yuzi chiroyli»⁵. Alloma ibn Hojibning «Mufasssal»ga yozgan sharhida foil mavzusida shunday deydi: Zamaxshariy **الفاعل** اسم كان و نائب الفاعل vaqtincha ega vazifasini bajaruvchi va noqis fe'llardan biri bo'lgan **كان** fe'lining ismi egasini zikr qilmaganini ta'kidlaydi. **أنه لم يذكره في المرفوعات** «U noibi foilni bosh kelishikdagi ismlar mavzusida zikr qilmagan»⁶. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ham noibi foil xususida to'xtalmagan va «Unmuzaj»da ham zikr qilinmagan. Ammo «Ar-Rido ala al-Kofiya» kitobi mullifi foil xususida Zamaxshariyning qarashi qanday ekanligini aytib o'tadi: **إن نائب الفاعل عند عبد القادر و الزمخشري فاعل إستلحا** «Noibi foil Zamaxshariy va Abdulqodir nazdida istilohan foildir»⁷ deydi kitobda. Bundan ko'rinadiki, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ham noibi foilni foil hisoblab, ustoz kabi uni alohida bob yoki faslda zikr qilmagan. Bu ham olimning ustozining uslubidan chetga chiqmaganligiga dalolat beradi. Lekin bu bobdagi ba'zi ta'riflarda fikrlarni dalillashda boshqa mutaxassis Abu Bakr bin as-Sirojning (316-h) ta'rifini qabul qilganini ko'rish mumkin. Bu esa olimning o'ziga xos yo'nalishga egaligini ko'rsatadi. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida foil ta'rifini «Mufasssal»dagi foil ta'rifidan biroz farq qiladi. Zamaxshariy **المسند إليه** foilni fe'l unga suyanadigan iborasi bilan izohlaydi, Ziyovuddin Makkiy

¹ O'sha asar, 20 b.

² Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi.sahifa21b

³ أبو بكر محمد بن السراج النحوى البغدادي.الأصول فى النحو.مؤسسة الرسالة ببغروت.1996م. ص72

⁴ شرح الأنموذج فى النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلى جمال الدين محمد بن عبد لغنى.حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999.صفحة26

⁵ أبى القاسم محمود بن عمر الزمخشري.تحقيق فخر صالح قدادة. المفصل فى علم العربية دار عمار -الأردن. 2003.صفحة 44

⁶ عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري. الإنصاف فى المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين. -القاهرة ، مطبعة السعادة. 1961.الجزء الأول. صفحة 159

⁷ محمد بن الحسن الإستراباذي السمنائي النجفي.شرح الرضى على الكافية. سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالسعودية 1996م.ص85



Xorazmiy esa حديثا عنه fe'l u haqida gapiradigan lafz iborasini qo'llaydi. Foil haqidagi ta'riflar va misollar turli xil, ammo bir-biriga mazmun jihatidan hammasi bir xil xususiyatga ega.

«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida foilni 5 qismga ajratadi:

1. المبتدأ «ot kesimli gapda ega vazifasida keluvchi»;
2. الخبر «ot kesimli gapda kesim vazifasida keluvchi»;
3. أخواته «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»;
4. خبر لا لنفي الجنس «mutloq inkorni ifoda qiluvchi لا ning kesimi»;
5. «yo'q emas ma'nosidagi لا اسم ما و لا بمعنى ليس»¹.

«Al-Unmuzaj»da ham foil 5 qismga ajratiladi:

1. الخبر «ot kesimli gapda ega vazifasida keluvchi» «ot kesimli gapda kesim vazifasida keluvchi»;

2. اسم كان «noqis fe'llardan biri bo'lgan كان fe'lining ismi egasi»;
3. أخواته «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»;
4. خبر لا لنفي الجنس «mutloq inkorni ifoda qiluvchi لا ning kesimi»;
5. «yo'q emas ma'nosidagi لا اسم ما و لا بمعنى ليس»².

Zamaxshariyning shogirdlaridan yana biri «Nahv ilmining imomi» nomini olgan Nasr ibn Abu-s-Said Mutarriziy (1144–1213) o'zining «Al-Misbah» kitobida «bosh kelishiklardagi ismlar»ni Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy kabi asl va aslga o'xshash turga bo'lib, foilni 5 qismga ajratadi. المبتدأ و خبره، خبر كان، خبر إن و «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»;

إن ning ismi, خبر لا لنفي الجنس اسم لا بمعنى ليس «mubtado va uning xabari, كان ning ismi, خبر لا لنفي الجنس اسم لا بمعنى ليس va uning o'xshashlari, mutloq inkor emas, yo'q ma'nosidagi inkor harflarning ismi»³.

Ibn Hojibning «Kofiya» asarida المرفوعات «bosh kelishiklardagi ismlar»ni Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy kabi ikki turga bo'lmasdan, undan farqli ravishda to'g'ri 7 qismga ajratadi: 1. الفاعل «fe'l kesimli gapda ega»; 2. مفعول مالم يسم فاعله «ega va kesim»; 3–4. الخبر و المبتدأ «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»; 5. أخواته «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»; 6. خبر لا لنفي الجنس «mutloq inkor ma'nosidagi لا ning kesimi»; 7. اسم ما و لا المشبهتين بليس «yo'q emas, yo'q ma'nosidagi ikkita o'xshash لا va ما ning kesimi. Zamaxshariy «Mufasssal»da foilni 4 turga bo'ladi: 1. الخبر و المبتدأ «ega va kesim»; 2. أخواته «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»; 3. لا التي لنفي الجنس «mutloq inkor ma'nosidagi لا ning kesimi»; 4. اسم ما و لا المشبهتين بليس «yo'q emas, yo'q ma'nosidagi ikkita o'xshash لا va ما ning kesimi». Mashhur nahv kitoblaridan biri hisoblangan o'tmishda ham, hozir ham arab va ajam talabalari orasida mashhur bo'lgan «Ajrumiya»ning

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 21.

² شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 26

³ أبو الفتح ناصر الدين بن عبد السيد بن علي الشهير المطرزي. المصباح في علم النحو. مكتبة الشباب بالقاهرة. ص 146.



sharhida «المرفوعات سبعة» «bosh kelishiklardagi ismlar»ni 7 turga bo'ladi. «bosh kelishikdagi ismlar 7 tadir» deydi sohibul kitob¹. Abu Hayyon «Hidayatu-n-Nahv» kitobida «المرفوعات» «bosh kelishikdagi ismlar»ni 8 turga bo'ladi. «الأسماء المرفوعة ثمانية أقسام» «raf holatdagi ismlar 8 qismdir» deb bayon qiladi². Zamonaviy nahv kitoblaridan biri Mustafo G'olayoniyning «Jaamiu-d-Durusu-l-Arabiya» asarida «المرفوعات» «bosh kelishiklardagi ismlar»ni 9 turga bo'ladi. «الأسماء المرفوعة تسعة» «raf holatdagi ismlar 9 tadir» deb, ularning navlarini keltirgan³. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «المرفوعات» «bosh kelishiklardagi ismlar» mavzusidagi ta'rif va sharh misollarni mavzuga doir istilohlarni va ularning mazmuni ma'nosi va boshqa xususiyatlarini mutaqaddim olimlarning kitoblaridagi va salaf ulamolarning asarlaridagi qarashlarini qiyoslaydigan bo'lsak ba'zi farqli o'xshash jihatlarni ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «bosh kelishiklardagi ismlar» «المرفوعات» ni ikki turga asl va aslga o'xshash turga bo'lib o'rganyapti. Bu shaklni «Al-Unmuzaj» kitobida ham ko'rishimiz mumkin. Demak, bu qarashda ikkita kitobda bir xillikni ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, foil mavzusida «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida foilni asl «bosh kelishiklardagi ismlar» turkumiga kiritadi. Zamaxshariy ham «Al-Unmuzaj» va «Mufasssal» kitoblarida foilni asl «bosh kelishikdagi ismlar»dan deb tushuntiradi. Bu qarashlarda ham ikkita olimning fikr va yondashuvlari bir ekanligining guvohi bo'lish mumkin. Ammo foilning qismlarga bo'linishida ba'zi o'rin almashishlar kuzatiladi. Masalan, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy foilni besh qismga ajratadi (ularning ketma-ketligini yuqorida zikr qilindi). «Al-Unmuzaj» asarida foilning adadi ham besh qismga ajratilgan. Bu holatni bir xil deb o'ylash mumkin, lekin unday emas. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy muftado va xabarni alohida qismga ajratib, birinchi va ikkinchi qismda beradi. Zamaxshariy esa «Al-Unmuzaj»da muftado va xabarni bitta qismga kiritadi. Bunda qismlarga bo'lishdagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy noqis fe'llardan biri bo'lgan كان fe'lining ismini foil qismlari qatoriga kiritmaydi. Ammo Zamaxshariy «Al-Unmuzaj»da كان fe'lining ismini foil qismlari qatorida ko'rsatib o'tadi, uni muftado va xabardan keyin ikkinchi qismga qo'yadi. Bu jihatdan ham ikkita kitobdagi farqlanishlarni ochiq-oydin kuzatish mumkin. Biroq Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy noqis fe'llardan biri bo'lgan كان fe'lining ismini foilning turlari qatorida ta'kidlamaganligi, uning bu qismini o'rganmagan yoki uni boshqa turga kiritgan, degan xulosaga kelinmaydi. U faqat كان fe'lining ismini fe'l so'z turkumlari qismida noqis fe'llar bobida keltiradi. Bu esa uning mazkur yo'nalishdagi o'zgaligini ifodalaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, foilning adadi borasida olimlarda

¹ أبو أنس مالك بن سالم بن مطر المهذري. الممتع في شرح الأجرومية. مكتبة دار الحديث بصنعاء. 1435 هـ. ص 84.

² جماعة من العلماء البارعين. هداية النحو. مكتبة البشري بكراتش باكستان. 2011 م. ص 30.

³ الشيخ مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. مؤسسة الرسالة ناشرون ببيروت. 2010 م. ص 393.



turli xil qarashlar va ko'p hollarda o'xshash jihatlar mavjud. Zamaxshariyning shogirdi Mutarziy ham «Misbah» kitobida foilni besh qismga ajratgan. Bu taqsimlash va mavzular ketma-ketligi Zamaxshariyning «Unmuzaj»idagi adad va mavzular ketma-ketligi bir xil. Bu o'sha davr nahv kitoblarini yozish uslubining o'zaro o'xshash bo'lganligidan dalolatdir. Boshqa zamonaviy ulamolarning foil bobidagi qarashlarini qiyoslaydigan bo'lsak, Mustafo G'olayoniy raf ismlarni yakdil to'qqiz turga bo'ladi. Ibn Hojib esa bosh kelishikdagi ismlarni etti turga va Ibn Hishom ham «Ajrumiya» kitobida yetti, Abu Hayyon «Hidayatu-n-Nahv» kitobida sakkiz turga bo'ladi. Mumtoz olimlarning bosh kelishikdagi ismlarni qismlarga taqsimlashida o'zaro yaqinlik bor. Biroq zamonaviy nahvshunoslardan biri Mustafo G'olayoniy tomonidan bosh kelishikdagi ismlar taqsimlanishida mutlaqo o'zgachalik mavjud. Unda bosh kelishikdagi ismlar adadi boshqa olimlar keltirgan adaddan ko'p. Chunki u bosh kelishikdagi ismlarni bir yo'nalishda o'rgatishni ma'qul ko'rgan bo'lsa, boshqalar bosh kelishikdagi ismlarning ayrim turlarini o'ziga yaqin bo'lgan boshqa mavzular ichida o'rganishni afzal bilishgan. Biroq umumiy bosh kelishikdagi ismlarning soni barcha kitoblarda bir xil, lekin har xil mavzularda yoritilgan. Ya'ni, har bir davrga xos asarning yozilishida o'sha davr an'anasi, ruhi sezilib turadi. Bunga misol: Sibavayh bosh kelishikdagi ismlar mavzusida muftadoni asl bosh kelishikdagi ismlar toifasiga kiritgan (I, 40), bunday hol o'sha davrning boshqa nahvshunoslarida ham kuzatilgan. Lekin oradan vaqt o'tib, keyingi nahvshunoslar unga zid ravishda foilni asl bosh kelishikdagi ismlar deb qarab, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mazkur qismlarga bo'lib o'rganishgan. Ba'zi farqlanishlarni hisobga olmasa, bunday masalalarning mazmun-mohiyati barcha olimlar nazdida bir xildir, faqat asarni ta'lif qilish, uni fasl va boblarga bo'lishda hamda mavzu nomlari qo'yishda o'z uslublariga ega.

Muftado bobini ikki kitob misolida kuzatilsa, olimning qarashlari, yo'nalishlarini ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida muftadoga quyidagicha ta'rif beriladi. *المبتدأ كل اسم جرد من العوامل اللفظية لتسند إليه الخير نحو زيد منطلق والله غفور رحيم، زيد مجرد من العوامل اللفظية التي هي نحو إن و كان* «muftado kesim unga ega-kesimlik munosabatida bo'lishi uchun lafziy omillardan xoli bo'lgan har bir ismdir, masalan: Zayd ketuvchidir, Alloh sevimli va rahmlidir, bu yerda Zayd muftado, ya'ni gapning egasi bo'lib, egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar hisoblamog' manosi-dagi fe'llar, fe'l manosi-dagi ismlar va old ko'makchilar kabi lafziy omillardan xoli hisoblanadi»¹. Muallif muftadoga ta'rif berib, unga misollar keltiradi. «Unmuzaj»da muftado haqidagi mavzuga to'xtaladigan bo'lsak, unda muftadoga ta'rif va misol bermasdan uning shartlari sharhiga o'tib ketilgan. «Mufasssal»da quyidagicha ta'rif va misollar keltiriladi. *هما الاسمان المجردان للإسناد، نحو زيد منطلق و المراد بالتجريد إخلاها من العوامل التي إن و كان حسب و أخواته إذا لم يخلوا منها تلعبت بهما*

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 23a.



غصبتهما القرار علي الرفع «mubtado va xabar ega-kesimlik uchun mustaqil ikkita ismdir. Masalan: Zayd ketuvchidir va mustaqildan murod uning egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar va hisoblamoq, gumon qilmoq fellari va uning o'xshashlari kabi omillardan xoli bo'lishidir¹. Agar ulardan xoli bo'lmasa, mubtado va xabar bilan munosabatga kirishadi hamda bosh kelishikda kelishiga to'sqinlik qiladi». **المسند و المسند إليه هما لا يغنى واحد منهما عن الآخر** Sibavayh o'zgacharoq ta'rifni keltiradi **«musnad va musnad ilayhi, ya'ni ega va kesim u ikkisidan biri boshqasidan ehtiyojsiz bo'lmaydi»**. Mutaqaddim ulamolardan Sibavayh mubtado mavzusini alohida mavzuga ajratib ko'rsatmasdan, ega va kesim haqida umumiy ta'rif berib, misollarni ham bir-biriga bog'lab tushuntiradi. Sibavayhning izdoshlaridan Zamaxshariy ham mubtadoni alohida vasf qilmasdan, bir yo'la mubtado va xabarga umumiy tushuncha berib, mubtado va xabarga ta'sir qiluvchi omillarni sanab, agar bu omillar bo'lsa, mubtado va xabar raflik alomatini yo'qotishini tushuntiradi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa mubtado istilohini alohida istiloh sifatida o'rganib, mubtadoga alohida tushuncha beradi. Ta'rifning o'zidan misollarsiz mubtadoni tushunib olish mumkin, chunki ta'rifda mubtado ega va kesimlik munosabatiga kirishishi uchun turli xil mubtadoga ta'sir qiluvchi omillardan xoli bo'lishini ta'kidlaydi va gapda ega bo'lgan zayd misolida uning omillardan xoli ekanligini va shu sababdan mubtado bo'layotganligini grammatik tahlil qiladi. Sibavayh bilan Zamaxshariyning bu mavzudagi qarashlari o'xshash bo'lib, u ikkisi mubtado va xabar, musnad va musnad ilayhi bilan bitta ta'rif berib, umumiy tushuntiradi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa ulardan farqli ravishda mubtado terminiga alohida e'tibor qaratib, mubtado u **الاسم** ism deb, uni xabarsiz zikr qiladi. Biroq ta'rifning oxirida xabarni ifodalaydigan **لتمسند إليه** «unga suyanish» fe'lini qo'llaydi. Zamaxshariy esa mubtado va xabarni umumiy tarzda **الاسمان** ikkita ism deb tushuntiradi. Sibavayhning uslubiga e'tibor bersak, u ham Zamaxshariy kabi mubtado va xabarni birgalikda ifodalab, mubtado bir ism yoki mubtado va xabar ikkita ism ko'rinishida emas, balki mubtadoni musnad, xabarni musnad ilayhi deb majhul nisbat sifatdosh ko'rinishidagi itilohdan foydalangan. Ta'riflarda iboralarining ishlatilishi har xil ko'rinishda berilgan, lekin barcha ta'riflardan ko'zlangan mazmun yagonadir. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy boshqa uslubda qisqa va jamlovchi ta'riflar bilan ifodalaydiki, mubtado ta'rifida xabarni ham tushunib olish mumkin. Ammo mazmun bir xilligini unutmaslik kerak.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy «Tushum kelishigidagi ismlar»ni ikki turga bo'lib o'rganadi: asl va aslga o'xshash tushum kelishigidagi ismlar. Ular asosan to'ldiruvchilardir.

1. **المفعول المطلق** «Mutlaq Masdar».

2. **المفعول به** «Vositasiz to'ldiruvchi».

3. **المفعول فيه** «O'rin va payt hollari».

¹ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدادة. المفصل في علم العربية دار عمار - الأردن. 2003. صفحة 47



4. المفعول معه «Birgalikni ifoda qiluvchi to'ldiruvchi».

5. المفعول له «Maqsad va sababni ifoda qiluvchi to'ldiruvchi».

Aslga o'xshash المنصوبات tushum kelishigidagi ismlar yetti turga bo'linib, ularni ham alohida boblarda bayon qiladi:

1. الحال «Hol».

2. التمييز «Cheklov aniqlashtiruvchi».

3. المستثنى بلا «Istisnolikni ifoda qiluvchi».

4. الخبر في باب كان «Noqis fe'llarning xabari».

5. الاسم في باب إن «Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning egasi».

6. اسم لنفي الجنس «Mutloq inkor yuklamaning ismi».

7. خبر ما ولا بمعنى ليس «Yo'q va emas ma'nosidagi ma'ning va la'ning xabari».¹

Zamaxshariy «Unmuzaj» asarida ham tushim kelishigidagi ismlarni xuddi shu tarzda taqsimlagan. Biroq Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy aslga o'xshash المنصوبات tushum kelishigidagi ismlarning to'rttasini ismlar qismida keltirmagan.

1. الخبر في باب كان «noqis fe'llarning xabari»ni bu mavzuning fe'l qismida.

2. الاسم في باب إن «Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning egasi» bu mavzuning harflar qismida;

3. اسم لنفي الجنس «Mutloq inkor yuklamaning ismi» bu mavzuning harflar bo'limida;

4. خبر ما ولا بمعنى ليس «Laysa ma'nosidagi ma'ning va la'ning xabari» bu mavzuning inkorni ifoda qiluvchi harflar bobida o'rganadi.

«Tushum kelishigidagi ismlar» turlarga bo'linish jihatidan qiyoslanadigan bo'lsa, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida va «Unmuzaj»da turlarning soni bir xil ekanligini ko'rish mumkin. Biroq Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asarni «Ism», «Fe'l» va «Harf» qismlariga bo'lganini e'tiborga olib, shu qoidaga qat'iy amal qilgan holda, otlarni to'liq «Ism» qismida, har bir fe'lga bog'liq bo'lgan mavzuni «Fe'l» qismida, harflarni faqat «Harf» qismida zikr qiladi. Garchi unda ism va fe'l mavzulariga bog'liq umumiy jihatlar bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga bag'ishlangan qismda yoritib berilgan.

Uchta: bosh kelishik, tushum va qaratqich kelishiklari mavzulariga bog'liq bo'lgan har bir kelishik bobining oxirida zikr qilinadigan mavzulardan biri التوابع – «kelishiklar bilan o'zgarishda o'zidan oldingi so'zga moslashuvchi turkum» mavzusi hisoblanadi. Tobelar jumalarda uchta kelishikdan biri bilan moslashib, ularning kelishigiga ergashadi.

Mahmud Zamaxshariy التوابع – «kelishiklarda o'zgarishda o'zidan oldingi so'zga moslashuvchi turkum» mavzusida التأكيد ta'kidlovchi – izohlovchi haqida

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 5b.



soʻz yuritib, uni ikki qismga ajratadi 1. تأكيد صريح aniq izohlovchi taʼkid; 2. تأكيد noaniq izohlovchi taʼkid¹.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ham التأكيد taʼkidlovchi – izohlovchini ustozlari kabi ikki qismga ajratadi. Lekin 1. التوكيد اللفظي lafziy izohlovchi taʼkid;

2. التوكيد المعنوي maʼnaviy izohlovchi taʼkid deb nomlaydi².

Buyuk tilshunos Ibn Hojib oʻzining “Kofiya” kitobida التأكيد taʼkidlovchi – izohlovchini Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy kabi ikki qismga boʻladi. U ham لفظي lafziy va maʼnaviy taʼkidlovchi deb nomlaydi³.

Mahmud Zamaxshariyning shogirdi Mutarziy ham التأكيد taʼkidlovchi – izohlovchini zikr qilib, uni ikki turga boʻladi: 1. التوكيد اللفظي u bilan lafziy izohlovchi taʼkid iroda qilinadi; 2. التوكيد المعنوي u bilan maʼnaviy izohlovchi taʼkid iroda qilinadi» deya, misollar keltiradi⁴. Nahvshunoslarning toʻbalar mavzusida qoʻllagan istilohlari bir-biriga juda oʻxshash boʻlsa-da, baʼzida bir-biriga xiloflikni kuzatish mumkin. Chunonchi, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy va Mutarziy ikkisi ham Mahmud Zamaxshariyning shogirdi ekanligiga qaramasdan, ustoziga aks tarzda toʻbalar mavzusida تأكيد صريح aniq izohlovchi taʼkid va noaniq izohlovchi taʼkid turlari oʻrniga لفظي lafziy va maʼnaviy taʼkidlovchi istiloh boʻlinishini qoʻllaydi. Darhaqiqat, xuddi shu istilohlarni Ibn Hojib va boshqa nahvshunoslarning kitoblarida ham uchratish mumkin.

Izofa bobida ham baʼzi farqli jihatlar koʻrinadi. Mahmud Zamaxshariy «Unmuzaj»da izofani ikki turga ajratadi. 1. الإضافة المعنوية «maʼnaviy izofa»; 2. الإضافة اللفظية «lafziy izofa». Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ham izofani ikki navga ajratadi. Biroq, maʼnaviy izofani haqiqiy izofa deb, lafziy izofani haqiqiy boʻlmagan izofa deb, qoʻllaydi. Undan tashqari, lafziy izofani gapda izofadan ajralgan maʼnoda boʻlishini taʼkidlab, «Unmuzaj» va «Mufasssal»da ishlatilmagan انفصال «ajralish» soʻzini qoʻllaydi.

Kitobning ikkinchi asosiy qismi hisoblangan feʼl soʻz turkumini ikki kitob – Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-eʼrāb» va Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarlarini chogʻishtirilsa, baʼzi xulosa va fikrlarni keltirish mumkin. Ikkinchi qism – feʼl soʻz turkumi qismi birinchi – ism soʻz turkumi qismidan ancha qisqa boʻlib, 10 bob 34 fasldan iborat. «Al-Unmuzaj» kitobi boblarga ajratilmagan, balki 8 ta sinf boʻlib, feʼl qismini bob deb ataydi.

¹ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدادة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003.صفحة 114

² Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-eʼrāb» qoʻlyozmalar fondi qoʻlyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 83b.

³ العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 105

⁴ أبو الفتح ناصر الدين بن عبد السيد بن علي الشهير المطرزي. المصباح في علم النحو. مكتبة الشباب بالقاهرة. ص.134.



«Mufasssal» kitobida ikkinchi qism 20 ta sinfdan iborat. Quyida undagi mavzularni yoritish tamoyillari tahlilga tortiladi.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida fe'l qismi hech qanday mavzu qo'ymasdan yoki bob va fasl ajratmasdan to'g'ridan to'g'ri fe'lning ta'rifiga o'tib ketiladi. Fe'lga quyidagicha ta'rif beriladi. **الفعل: ما دل على معنى في نفسه مقترن بزمان مخصوص** «muayyan zamonga bog'liq bo'lib, mustaqil ma'noga dalolat qiluvchi so'z turkumiga fe'l deyiladi». Muallif fe'l ta'rifidan keyin uning alomatlarini zikr qilib, misollar yordamida ba'zi xususiyatlarni tushuntiradi. Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarida esa fe'lga ta'rif berilmasdan, uning xususiyatlari aniqlangan. Muallif asardagi fe'l qismini quyidagi so'zlar bilan boshlaydi: **الفعل هو ما صح أن يدخله "قد" وحروف الاستقبال** «Kelasi zamondagi ish-harakatning amalga oshish ehtimolini bildiruvchi, yaqin hamda uzoq kelajakni ifodalash, yuklamalar, shaxs-son qo'shimchalari va ayol kishiga dalolat qiluvchi sukunli harflarni qabul qilish fe'lning alomatlari hisoblanadi»¹. Fe'lning alomatlari haqidagi ma'lumot va ba'zi misollaridan so'ng uning sinflari tasniflanadi. «Mufasssal»da esa «Al-Unmuzaj»dan farqli ravishda fe'lga ta'rif berib, keyin uning xossalari o'tilgan. Kitobda fe'l ta'rif quyidagicha keladi: **الفعل: ما دل على إقتران حدث بزمان** «Voqea-hodisaning zamonga bog'lanishiga dalolat qiladigan so'z turkumi fe'l deyiladi»². Fe'lga ta'rif berib, unga misol va sharhlar keltiriladi. Yana bir nahvshunos alloma Ibn Hojib fe'l haqida shunday deydi. **الفعل: ما دل على معنى في نفسه مقترن بأحد الأزمنة الثلاثة** «Uchta zamondan biriga bog'lanib mustaqil ma'noga dalolat qiluvchi so'z turkumi fe'l deyiladi»³. Fe'llarning xususiyatlari zikr qilingach, uning turlari xususida fikr yuritiladi. «Hidayatu-n-Nahv» kitobida unga quyidagicha ta'rif beradi. **الفعل: كلمة تدل على معنى في نفسها دلالة** «O'z ma'nosida biror zamonga bog'liq bo'lib, mustaqil ma'noga dalolat qiluvchi kalima fe'l deyiladi»⁴. Ibn Yaish «Mufasssal»ning sharhida fe'lga quyidagicha ta'rif beradi: **فأما الفعل فكل كلمة تدل على معنى في نفسها مقترنة** «Zamon bilan bog'liq bo'lib, mustaqil ma'noga dalolat qiluvchi kalima fe'l deyiladi»⁵. Zujajiy fe'lga quyidagicha ta'rif beradi: **الفعل كل لفظة دلت على معنى مقترن** «Muayyan zamonga bog'liq bo'lgan ma'noga dalolat qiluvchi har bir lafz fe'l deyiladi» (D, N, 95). Ibn Aqiyl esa fe'lga o'zgacharoq yondashadi. **الاسم** «Ism zamon bilan bog'lansa, u fe'l dir»⁶.

¹ شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - القاهرة. 1999. صفحة 134

² أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار - الأردن. 2003. صفحة 243

³ العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 161

⁴ جماعة من العلماء البارعين. هداية النحو. مكتبة البشرى بكراتش باكستان. 2011م. ص 10.

⁵ العلامة ابن يعيش. شرح المفصل في صنعة الإعراب. إدارة الطباعة المنيرية. بمصر. ص 912

⁶ صلاح الدين الزعلاوي. الدراسات في النحو. المكتبة الشاملة. ص 95



Kitobning asosiy qismi bo'lgan fe'l qismidagi ta'rif va uning misollarini kuzatilar ekan, boshqa nahvshunoslarning kitobida mazkur mavzudagi yondashuvlar uncha katta farq qilmaydi. Masalan: Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida fe'l ta'riflari Ibn Yaishning va Zujajiyning fe'lga bergan ta'riflari bilan bir xil, faqat ba'zi ma'noga ta'sir qilmaydigan darajada birlikdagi so'zlarda farqlanish bor. Ibn Yaish «Mufasssal»ning sharhidagi Zamaxshariyning fe'lga bergan ta'rifini odatdagiday to'g'ridan to'g'ri sharh qilmasdan fe'lga alohida ta'rif bergan. Chunki Ibn Yaish faqat bog'lanish fe'lga dalolat qilmasligini aytib, ta'rifning boshiga kalima yoki lafz so'zini qo'yish afzal bo'lishini ta'kidlaydi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa kalima va lafz so'ziga dalolat qiluvchi nisbiy olmosh bilan ifodalaydi. Ibn Hojib va Zamaxshariyning ta'riflaridagi yagona farq – Zamaxshariyning ta'riflarida حدث voqea-hodisa so'zining borligida. Biroq Ibn Aqil boshqa yo'ldan borib, fe'lni uning sharti bilan ta'riflaydi, ya'ni fe'l unga dalolat qiluvchi shartga ega bo'lsa, fe'l bo'la olishini ta'kidlaydi. Umuman olganda, tilshunoslar orasida bu yo'nalishda ixtiloflar deyarli mavjud emas. Demak, asar yozishda ularni mavzularga bo'lish va yuqoridagi fe'l ta'riflari ko'rinishidagi uslublar bir manhajga dalolat qiladi. Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarida fe'lning ta'riflari berilmagani kuzatildi, chunki fikrimizcha, bu asar «Mufasssal»ning ixchamlashtirilgan sharhi hisoblanadi, muallif mavzuga ta'rif bermasdan, birdaniga misollarga o'tib ketgan, shu sababli asar qisqa uslubga asoslangan. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi fe'l ta'riflari uchta nahvshunos olimning ta'riflariga yaqin turishi bilan umumiy qamrovchi ta'rif degan xulosaga kelish mumkin. Fe'lning alomatlarini bir tur qatorida ifodalamasdan, alohida alohida zikr qilinadi.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida fe'l turlarini o'rganib chiqib, Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarida fe'llarning turlarini taqqoslangach, ikkita asardagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rish mumkin. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida muallif fe'llarni 10 turga ajratadi:

1. الماضى – «O'tgan zamon fe'li».
2. المضارع – «Hozirgi-kelasi zamon fe'li».
3. الأمر – «Buyruq mayli».
4. المتعدي و غير المتعدي – «O'timli va o'timsiz fe'llar».
5. المبني للمفعول – «Majhul fe'llar».
6. أفعال القلوب – «Taxmin, gumon, hisoblash ma'nosidagi fe'llar».
7. الأفعال الناقصة – «Noqis yordamchi fe'llar».
8. أفعال المقاربة – «Ish-harakatning yaqinligini ifoda qiluvchi fe'llar».
9. فعلى المدح و الذم – «Maqtov va tahqir fe'llari».
10. فعلى التعجب – «Taajjubni ifoda qiluvchi fe'llar»¹.

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 169b.



Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarida fe'llarni «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridan farqli ravishda 11 turga bo'ladi¹:

1. الماضى – «O'tgan zamon fe'li».
2. باب المضارع – «Hozirgi-kelasi zamon fe'li».
3. الأمر – «Buyruq mayli».
4. المتعدي – «O'timli fe'llar».
5. غير المتعد – «O'timsiz fe'llar».
6. المبنى للمفعول – «Majhul fe'llar».
7. الأفعال الناقصة – «Noqis yordamchi fe'llar».
8. أفعال القلوب – «Taxmin, gumon, hisoblash ma'nosidagi fe'llar».
9. باب أفعال المقاربة – «Ish-harakatning yaqinligini ifoda qiluvchi fellar».
10. باب فعلى المدح و الذم – «Maqtov va tahqir fe'llari».
11. باب فعلى التعجب – «Taajjubni ifoda qiluvchi fe'llar».

«Mufasssal»da fe'llarning turi 12 qismga ajratiladi. Fe'llar turining ketma-ketligi «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi bilan bir xil berilgan. Faqat «Mufasssal»da fe'llarning turi ko'proq berilgan, ikki fe'l turini الفعل الثلاثى «Uch o'zakli fe'llar», الفعل الرباعى «to'rt o'zakli fe'llar»ni Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asarida zikr qilmagan. Ibn Hojib ham fe'llarni «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi kabi 10 turga bo'lgan. (K,161,188).² «Kofiya»da باب المبنى للمفعول – «Majhul fe'llar» istilohi o'rniga الفعل ما لم يسم فاعله «foili zikr qilinmagan fe'l» deb keltiriladi. Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarida fe'l turini 11 ta deyilgan bo'lsa ham, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi adad bilan bir xil desa bo'ladi. Chunki «Unmuzaj»da «O'timli va o'timsiz fe'llar»ni alohida zikr qiladi, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa ularni bitta mavzu qilib o'rganadi. Asarlardagi fe'llarning turlari va ketma-ketligi nomlanishida juda katta farq topilmadi. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi adad bilan «Unmuzaj»da asar bir xil deyilsa, undan boshqa asarlarda ham mana shu izchillikni kuzatish mumkin. «Kofiya» asarida kuzatilgani kabi fe'l turlari va ularning ketma-ketlik xususiyati «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» va «Unmuzaj»dagi bilan bir xil. Demak, fe'l turlarini tahlil qilar ekanmiz, kitoblardagi nahv masalalarning yoritilishida mutlaq o'zgachalikni topish mushkul.

Xulosa. Qadim zamonlardan buyon ilmiy izlanishda keng qo'llanib kelyotgan usullardan biri asarlarni sharhlash orqali tushuntirish uslubi hisoblanadi. Olimlar boshqa mualliflar asarlarini o'rganuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun ularni har xil usullar bilan sharhlashgan. Ba'zida mualliflar o'z asarlarini talabalarga o'rgatishda murakkablikka duch kelishgan, shuning uchun asarni sharhlab qaytadan yozishgan. Asar matnini sharhlash va izohlash jarayonida notanish so'zlarning

¹ شرح الأنموذج فى النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأربيللى جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 134

² العلامة ابن الحاجب الكافية فى النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 161-188



ma'nolari, boshqa so'zlarning ko'chma ma'nolari yoki bir so'zning bir necha ma'nolari va boshqa xususiyatlari alohida-alohida tushuntirilgan. Sharh tayanch matndagi tugunni yechish vazifasini bajargan. Arab tili gammatikasida mana shunday sharhlardan biri Mahmud Zamaxshariyning o'z asari bo'lmish «Mufasssal»ga yozgan «Al-Unmuzaj» sharhidir. Tadqiqotimiz asosi hisoblangan «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari «Unmuzaj»ning sharhi degan ba'zi qarashlarga qo'shilmasdan, bu asar mustaqil asar ekanligini ko'rsatuvchi ayrim xulosalarimizni taqdim qilamiz:

Birinchidan, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida «Al-Unmuzaj» kitobining tayanch matni keltirilmagan. Odatda, biror asar sharhlanadigan bo'lsa, avval har bir mavzuning tayanch matni yoki uning ma'lum bir qismi keltirilib, sharh bilan asl matnni ajratib turadigan chiziq qo'yiladi yoki boshqa alomatlar bilan ajratiladi. Tayanch matn berilib, undagi murakkab so'z va iboralar, ta'rif va misollar sharhlovchi tomonidan yengil va kengroq uslubda tushuntiriladi. Hamma tushuna oladigan tarzda hech bir so'zni e'tibordan chetda qoldirmasdan tafsir qilinadi va bu orqali asarni ommalashtirishni maqsad qilinadi. «Al-Unmuzaj» kitobining Ardabiliy sharhi huddi shu qonuniyat asosida tartiblangan. Unda asl matn keltirilib, keyin o'z tilidan unga sharh bitilgan. Zamaxshariyning boshqa asarlariga yozilgan sharhlar ham xuddi shu ko'rinishda tafsir qilingan. Biz «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida sharhning belgilaridan bo'lgan yuqoridagi alomatlarni topmadik. Yoki Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asarining biror joyida «Al-Unmuzaj» muallifi shunday deydi, men bunday deyman, deb ta'rif yoki izoh bermagan. Bundan xulosa qilinadiki, olim o'z ilmiy qarashlariga ega bo'lib, uni mustaqil bayon qilgan.

Ikkinchidan, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarini mashhur Sharq olimi eronlik Shayx Og'a Buzruk «Unmuzaj»ning uslubida yozilganini ta'kidlaydi. Hoji Xalifa esa bu mustaqil asar ekanligini bildirmagan bo'lsa-da, uning sharh ekanligini ham qat'iy ta'kidlamagan. Karl Brokkelman «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarini «Al-Unmuzaj» asarining sharhlari qatorida zikr qilganligi, bu asar bevosita unga bog'liq bo'lganidan va Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asar muqaddimasida «Mufasssal» va «Unmuzaj»ni zikr qilganligidan dalolatdir. Bundan tashqari, muallifning Zamaxshariyning shogirdi bo'lganidan yoki Hoji Xalifaning sharhga o'xshash degan so'zlarining inobatidan bu asarni sharhlar qatorida aytib o'tgan bo'lishi mumkin. Boshqa tilshunoslar ham Karl Brokkelmaning fikriga tayangan. Asar qiyosiy o'rganilib, dalil va xulosalar bilan sharh ekanligi isbot qilinmagan. Agar aniq sharh bo'lganida tilshunoslar o'rtasida ixtilof bo'lmas edi. Yana ko'plab mashhur nahv kitoblari orasidan «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari tanlab olinib, Eron madrasalarining o'rta bosqichdagi talabalariga yaqin-yaqingacha o'rgatilgani va Eronda Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asarlari keng o'rganilganini inobatga olsak, qo'lyozmalardagi ma'lumotlarga tayanib, bu asar



mustaqil asar deyishimiz mumkin. G'arb olimlarining fikridan ko'ra, Sharq olimlarining fikri bizga yaqinroqdir.

Uchinchidan, ikkita asar mundarijada bir xilligi istilohlarda, so'z turkumlarida va bir necha ta'rif va yondashuvlarda juda yaqinligi bu asar sharh ekanligini anglatmaydi. Bunday holat boshqa nahv kitoblariga ham tegishli bo'lib, bu tabiiy holat. Endi ko'pgina ma'noga ta'sir qilmaydigan farqlanishlarni inobatga olsak, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy o'zining shaxsiy qarashlariga ega ekanligiga ishora qiladi. Bu farqlanishlar asarning mutlaqo boshqa manhajdagi asar ekanligini anglatmasa-da, uning «Al-Unmuzaj» va «Mufassal»ga nisbatan tushuntirishda va grammatik tahlil qilishda yengil va sodda, o'rta usulda yozilganligining shohidi bo'lish mumkin. Asardagi «tobelar» mavzusidagi mutloq xiloflik va biz zikr qilgan boshqa farqlanishlar «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarining mustaqil asar ekanligini namoyon etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu kitob mustaqil asar ekanligi bilan bir qatorda boshqa nahvshunoslarning fikr va qarashlaridan farqli bo'lmagan holda yozilgan bo'lib, muallifning e'tirofi bo'yicha barcha usullarni jamlovchi asardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdujabbor Qahhorov, Malika Nosirova. Gap sintaksisi arab tilshunoslari talqinida. – Toshkent, 2013. – 163-b.
2. Malika Nosirova. O'rta asr arab nahvidan namunalar. – Toshkent, 2004. – 71-b.
3. Qosimova.S.S. Klassik arab nahvidan ma'lumotlar. – Toshkent, 2011. – 88-b.
4. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» O'zbekiston Respublikasi Fannlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi.
5. أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار - الأردن. 2003. صفحة 565.
6. الشيخ محمد محسن بن علي بن محمد رضا الطهراني النجفي. كتاب الذريعة الى تصانيف الشيعة الجزء الثامن عشر. دار الأضواء. بيروت. 1983. صحيفة 441.
7. شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه وعلق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 230.
8. عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري. الإنصاف في المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين. - القاهرة ، مطبعة السعادة. 1961. الجزء الأول. صفحة 880.
9. العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراء النهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 217.
10. القرآن الكريم. بالرسم العثماني. الخطاط عثمان طاه. دار الهلال طشقند. -2020.
11. كارل بروكلمان. تاريخ الأدب العربي . دار المعارف بمصر. الجزء الخامس. 1975. ص.315.
12. العلامة حاجي خليفة كشف الظنون عن أسامي الكتب و الفنون. بيروت 1981. ص.470.
13. العلامة ابن يعيش. شرح المفصل في صناعة الإعراب. إدارة الطباعة المنيرية. بمصر. ص.132.



14. أبو بكر محمد بن السراج النحوى البغدادي. الأصول فى النحو. مؤسسة الرسالة بيروت. 1996م. ص 436
15. أبو عمرو عثمان بن عمر المعروف بابن الحاجب النحوي. شرح المفصل. إحياء التراث الإسلامي بالعراق. 1982م. ص 719.
16. محمد بن الحسن الإستراباذي السمنائي النجفي. شرح الرضى على الكافية. سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالسعودية. 1996م. ص 1222.
17. أبو الفتح ناصر الدين بن عبد السيد بن علي الشهير المطرزي. المصباح فى علم النحو. مكتبة الشباب بالقاهرة. ص 159.
18. أبو أنس مالك بن سالم بن مطر المهذري. الممتع فى شرح اللآجرومية. مكتبة دار الحديث بصنعاء 1435هـ. ص 219.
19. جماعة من العلماء البارعين. هداية النحو. مكتبة البشرى بكراتش باكستان. 2011م. ص 160.
20. الشيخ مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. مؤسسة الرسالة ناشرون بيروت. 2010م. ص 789.
21. أبو بشر سيبويه إمام النحاة. كتاب سيبويه فى النحو. مكتبة الخانجي بالقاهرة. 1988م. ص 439.
22. صلاح الدين الزعلاوي. الدراسات فى النحو. المكتبة الشاملة. ص 288.
23. ضياء الدين المكي الخوارزمي. المناقب. تحقيق الشيخ مالك المحمودي. مؤسسة النشر الإسلامي بقم المشرفة. ربيع الثانى 1414هـ. ص 406.

ABDURAHMONOVA MUHAYYO

Dotsent, f.f.n., TDSHU

Hindistonda fanlarni o'qitishda interfaol usullarni qo'llash tajribasi

Annotatsiya. Maqolada butun dunyoda multimedia texnologiyalari o'quv jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida dasturiy-metodik ta'minlash, moddiy-texnik bazani takomillashtirish, shuningdek, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish uchun mazkur zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'limga muvaffaqiyatli tatbiq etish xususida so'z boradi. Informatsion texnologiyalar rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimidagi eng e'tiborli jihatlardan biri bo'lib, bu ularning ta'lim jarayoni samaradorligiga katta hissa qo'shadi. Ayniqsa, informatsion virtual ta'lim ta'lim jarayonining sifat xususiyatini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Maqoladagi asosiy vazifa – Hindiston universitetlarida virtual–ta'lim texnologiyasi zamirida qo'llanilayotgan ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy ushlublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish yo'llarini yoritishdir.

Kalit so'z va birikmalar: multimedia texnologiyalari, o'quv jarayonini axborotlashtirish, dasturiy-metodik ta'minlash, moddiy-texnik baza, zamonaviy axborot texnologiyalari, informatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni samaradorligi, informatsion virtual ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari, masofadan o'qitish usullari.